



INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOT: GENEZISI VA ISTIQBOLDA RIVOJLANISHI

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

sh.mamayusupova@tsue.uz

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8133488>

ARTICLE INFO

Received: 30th June 2023

Accepted: 07th July 2023

Online: 08th July 2023

KEY WORDS

Integratsiyalashgan hisobot, shart-sharoitlar, genezis, bosqichlar, integratsiyalashgan hisobot bo'yicha qo'mita, integratsiyalashgan hisobot bo'yicha mintaqaviy tarmoqlar, integratsiya hisobot konsepsiyasi.

ABSTRACT

Jahon amaliyotida integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish bosqichlarini aniqlash va tizimlashtirish korporativ hisobot tizimida integratsiyalashgan hisobotning o'rni va rolini, istiqboldagi ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini aniqlash; buxgalteriya hisobi va hisoboti sohasidagi mutaxassislarni integratsiyalashgan hisobotning rivojlanish tarixi bilan tanishtirish katta ahamiyat kasb etadi. Korporativ hisobot borasidagi yangi innovatsion yondashuv sifatida integratsiyalashgan hisobotni rivojlantirishning shart-sharoitlari aniqlandi va tizimlashtirildi. Xalqaro amaliyotda integratsiyalashgan hisobotni rivojlantirish asosiy voqealar yoritildi, ular to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirildi, integratsiyalashgan hisobot genezisining asosiy bosqichlari bayon qilindi.

2020-yilda yuz bergan pandemiya kompaniyalar atrof-muhitidagi vaziyatni har doim ham nazorat qila olmasligini ko'rsatdi. Lekin ular yuz berayotgan xodisalarga qilayotgan munosabatini nazorat qila olishi mumkinligini o'rgandi. Pandemiyaning dastlabki zarbasi va izolyatsiyaning uzoq muddatli oqibatlarini bartaraf etishni boshlagandan so'ng kompaniyalar COVID-19 bilan bog'liq fikrlashni keyingi va so'nggi bosqichiga o'tishni boshlashi mumkin.

COVID-19 pandemiyasi noaniq biznes muhitini yaratish orqali iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, geosiyosiy savdo va ijtimoiy munosabatlardagi buzilgan yo'nalishlarni ochib berdi. Kompaniya rahbarlari endi faqat biznes strategiyasiga bor e'tiborini qaratish bilan cheklanib qolmasdan kuchli ijtimoiy xabardorlik va ongga ega bo'lishlari kerak. Ushbu noaniq sharoitlarda yirik trans milliy kompaniyalarning boshqaruvchilari yangi bozor imkoniyatlarini topishga va hozirgi kundagisini to'liqroq egallashga asosiy e'tiborini qaratadi.

Boshqa tomondan, tadbirkorlar noaniqlik sharoitida bozordagi yetakchilikka yoki "birinchilik"ning afzalliklariga ega bo'lish uchun imkoniyatlar izlaydi.

Bu kompaniyalar "muxofaza" va "tajovuzkor" strategiyalarni hisobga olishlari kerakligini anglatadi. Ushbu sharoitda eng yaxshi natijaga erishgan kompaniyalar nafaqat xavfsiz bo'ladi, balki ularning hatto ikki barobarga o'sishga erishadi.



Noaniqlik sharoiti uchun eng mos biznes tadbirlarni ishlab chiqish asosiy manfaatdor tomonlarning, shu jumladan, investorlar, mijozlar, xodimlar, tartibga soluvchilar va ularning kompaniyalari faoliyat yuritayotgan hamjamiyatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini chuqurroq tushunishni talab qiladi.

Ssenariy rejalashtirishni imkoniyatlarni hisobga olgan holda kengroq ko'rib chiqish, o'zgarayotgan iqtisodiy va ijtimoiy landshaftni muntazam kuzatib borish va kompaniyaning strategiyasini bunga javoban moslashtirish juda muhim masala hisoblanadi.

Bu korxonalarga kuchayib borayotgan noaniqlik sharoitida yechim topish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Natijada, boshqaruv kengashining "ovozi" eshutilishi har doimdagidanda o'ta muhim hisoblanadi. Manfaatdor tomonlar kompaniyaning o'z strategiyasini o'zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga vabevosita qo'qqisdan yuzaga kelgan shoklarni bartarafetish va kelajakda iqtisodiy o'sishni ta'minlashgamos ravishda qanday shakllantirganidan xabardor bo'lishdan manfaatdordir. Shakllantirilgan integratsiyalashgan hisobotlar orqali boshqaruvning istiqbolga oid reja va strategiyasi, yuzaga keladigan risklar va imkoniyatlarni namoyon qilish, ularning biznes modellari noaniqlikni hisobga olish uchun qanday moslashtirilganligini ko'rsatish uchun Janubiy Afrika kompaniyalari juda mos keladi.

2010-yil integratsiyalashgan hisobotni rivojlantirishda muhim yil bo'ldi. Ushbu yilda A4S va GRI tashabbusi bilan "Investorlar, kompaniyalar, standart ishlab chiquvchilar, buxgalterlar, buxgalteriya firmalari va nodavlat tashkilotlarini global tartibga solish koalitsiyasi—Xalqaro integratsiyalashgan hisobot Kengashi" tashkil etildi [1].

Xalqaro integratsiyalashgan hisobot kengashi integratsiyalashgan hisobotlarni shakllantirishni keng yoyishga intilayotgan asosiy tashkilotdir. Uni tashabbuskorlari: Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi, Global hisobot tashabbusi GRI, "Barqarorlik uchun buxgalteriya hisobi" (A4S) va Xalqaro standartlar tashkiloti (ISO) hamda 2013 - yildan XMHK Kengashi (IAS) hisoblanadi [2].

"Shuni ta'kidlash kerakki, integratsiyalashgan hisobot tuzish Janubiy Afrika Respublikasida keng tarqalgan. 2010-yilning fevral oyida Yoxannesburg fond birjasi aksiyalari birja kotirovkasi ro'yxatiga kiritilgan listing kompaniyalari uchun 2010-yil 1 martdan boshlab moliyaviy yil uchun integratsiyalashgan hisobot taqdim etish majburiy talabini joriy qildi" [3]. 2010-yilda Janubiy Afrikada asosiy vazifasi integratsiyalashgan hisobot bo'yicha qo'llanma ishlab chiqish hisoblangan integratsiyalashgan hisobot Qo'mitasi tashkil etildi. 2017-yildan boshlab Janubiy Afrika kompaniyalari hisobot taqdim etish uchun "King4" korporativ boshqaruv kodeksini qo'llash sharti belgilandi. Ushbu kodeks avvalgisidan "qo'lla yoki tushuntir" tamoyilini "qo'lla va tushuntirish" tamoyiliga almashtirilishi bilan farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, nafaqat integratsiyalashgan hisobotlarni shakllantirishga oid yondashuvlarni oshkor qilish, balki mazkur hisobot turini joriy qilishni ko'zlangan natijalarga erishishga beradigan yordamini ham izohlash kerak.

Dunyodailk bor integratsiyalashgan hisobot 2002-yilda Daniya farmakalogiya sanoatida taqdim etildi [4]. Daniyada kompaniyalar auditorlar tomonidan tasdiqlangan integratsiyalashgan hisobotni chop etadi.



Shvetsiyada esa2008-yildan buyon kompaniyalar Yevropa Ittifoqinishaffoflik bo'yicha direktivasiva hisobotlarni modernizatsiya qilish bo'yicha direktivasida keltirilgan talablarga muvofiq integratsiyalashgan hisobotlarni shakllantiradi.

AQSH qimmatli qog'ozlar komissiyasi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq axborotlarni oshkor qilish bo'yicha Qo'llanma qabul qilgan.Unga ko'ra, integratsiyalashgan hisobotni tayyorlaydigan kompaniyalarga tabiatni muhofaza qilish xarajatlarini oshkor qilish va ushbu sohadagi asosiy risklarni tavsiflash tavsiya etilgan [5].

Boshqa mamlakatlar ham ushbu tashabbuslarga asta-sekin qo'shilmoqda. Masalan, Fransiya Grenelle II davlat aktini e'lon qildi, unga ko'ra, integratsiyalashgan hisobotning majburiy qismida ijtimoiy va ekologik sohalarda olingan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak, moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni uchinchi tomon tasdiqlashi shart. Bundan tashqari, Fransiyada aksiyalari birjalarda kotirovka qilinadigan yirik kompaniyalar 2012-yildan, kichikroq kompaniyalar esa 2014-yildanboshlab ijtimoiy va ekologik samaradorlik bo'yicha hisobotlarni taqdim etadi.

2014-yildan boshlabEvropa parlamenti 500 dan ortiq xodimlarishlaydigan 6000 ta kompaniyaga atrof-muhit, ijtimoiy hisobot va korporativ boshqaruv, risk va faoliyat natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishnimajbur qilib qo'ygan.

Ikki yil o'tgach Gonkong fond birjasi Yoxannesburg birjasiga o'xshab, kompaniyalarga integratsiyalashgan hisobotlarida ijtimoiy va ekologik ta'sir haqida, korporativ boshqaruv haqidagi ma'lumotlarniaks ettirishni tavsiya qildi. 2015-yildan boshlab birjaning mazkur tavsiyalari majburiy bo'ldi.

Hindistonda esa2011-yilning iyul oyida Korporativ munosabatlar vazirligi barqaror rivojlanish masalalarini biznes amaliyotiga integratsiya qilish zarurligini belgilaydigan biznesning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy mas'uliyati bo'yicha ixtiyoriy milliy ko'rsatmani e'lon qildi.2011-yil noyabr oyida Hindistonning qimmatli qog'ozlar va birja Komissiyasi mamlakatning 100 ta yirik kompaniyasiga ushbu qo'llanmaga muvofiq biznes javobgarlik to'g'risidagi hisobotni nashr etish majburiyatini belgiladi.

Amerikaning"UnitedTechnologiesCorporation"(UTC)kompaniyasi 2009-yilningboshida birinchi marta 2008-yil uchun o'z faoliyati haqida hisobot chop etdi va unda korporativ javobgarlik to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlar taqdim etildi.Xalqaro integratsiyalashgan hisobot standartlari hali shakllantirilmagan o'sha davrda bittakompaniyaning bunday urinishlari hisobotlarni tuzishning eng yaxshi namunalarini butun dunyo bo'ylab tarqatishda katta ahamiyat kasb etdi.AQSHning The Clorox Company, PepsiCo, Microsoft, Edelman va boshqa shu kabi yetakchi kompaniyalari integratsiyalashgan hisobot taqdim etish bo'yicha biznes tarmog'i faoliyatida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Keng manfaatdor tomonlar koalitsiyasining yakuniy maqsadi 2020-2025-yilgacha bo'lgan davrda barcha davlat yirik kompaniyalari uchun integratsiyalashgan hisobotni majburiy qilishdir.

Integratsiyalashgan hisobotnitakomillashtirishning rag'batlantirish maqsadida notijorat tashkiloti hisoblangan Barqaror buxgalteriya standartlari kengashitashkil etildi. U sog'liqni saqlash, moliya, telekommunikatsiya, qayta tiklanmaydigan energiya manbalari, transport, xizmatlar, energiya olish va iste'mol qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindilarni utilizatsiya qilishga oidmoliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar hamda hisobotlarni o'lchash standartlarini shakllantirishni rejalashtirmoqda.



2011-yilda Germaniyaning Berlin shaxrida integratsiyalashgan hisobotgabag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi.

Kenya va Xitoyda esa 2017-yili integratsiyalashgan hisobotlarni tayyorlash bo'yicha ilk urinishlar qilindi.

Korporativ hisobot shakllantirish Avstraliyada faol rivojlantirilmoqda, chunki kompaniyalar xo'jalik faoliyatijarayonlarini qayd etish va kapitalni jalb qilishda uning ahamiyatini tan oldi.

Niderlandiyaning integratsiyalashgan hisobot biznes tarmog'i borasidagi yetakchikompaniyalari istiqbolda rivojlanish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida integratsiyalashgan hisobotlarni shakllantirish bo'yicha fikr va tajriba almashish uchun muntazam uchrashuvlar tashkil qiladi.

2012-yil 20-22-iyun kunlari bo'lib o'tgan BMTni Barqaror rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi(Rio+20)dadunyo miqyosida integratsiyalashgan hisobotni qo'llab-quvvatlash misli ko'rilmagan darajaga yetdi.196 ta mamlakat hukumatlari delegatlari va BMThukumatlararo uchrashuvda erishilgan yuqori darajadagi shartnomalar majmui-Yakuniy hujjatga kiritilgan korporativ hisobot integratsiyasi tushunchasini qo'llab - quvvatlashini bildirdi.


Shuningdek, mazurkonferensiyada 5 ta mamlakat fond birjalari -NASDAQ (AQSH), BM&FBOVESPA (Braziliya), Johannesburg Stock Exchange (JSE, JAR), Istanbul Stock Exchange (Turkiya) va Egyptian Exchange (Misr)investorlar, kompaniyalar va reguliatorlar bilan uzoq muddatli barqaror investitsiyalarni ilgari surish va ESG sohasida faoliyat ko'rsatkichlarini aks ettirish maqsadida o'z birjalarida listingga ega bo'lgan kompaniyalar(jami 4600 kompaniyalar) bilan hamkorlik qilishlarini ma'lum qildi[6].

Mintaqalarda integratsiyalashgan hisobotni joriy qilish va targ'ib etish maqsadida mintaqaviy hisobot tarmoqlari ham yaratilgan. Bunday tarmoqlar Avstraliya, Amerika, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Skandinaviya, Janubiy Afrika, Yaponiya, Rossiya federatsiyasida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ford, Johnson&Johnson, Shell, Disney, Procter&Gamble, Vodafone, Xerox, Microsoft, Cisco, HP, Siemens, BASF, Sosa-Cola, ArcelorMittal, Novartis, Carrefour, Nokia, HSBC, Philips, NovoNordisk, American Electric Power, Pfizer, Astra Zenecava United Technologies Corporation kabi mashhur transmilliy kompaniyalar tomonidan integratsiyalashgan hisobot taqdim etiladi.

Ushbu yirik kompaniyalarning boshqaruvchilarni ta'kidlashicha,mazkur hisobotlarni chop etish investorlarning ishonchini oshiradi va mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.Shu boisdan ham, hozirgi kunda dunyodagi yirik kompaniyalar tomonidan nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Buni quyidagi raqamlar ham tasdiqlab turibdi. 2020-yilda G250 ga kiruvchi kompaniyalarni 96 % i nomoliyaviy hisobot tuzgan (2005-yilda bu raqam 64% bo'lgan), 73%i GRIga muvofiq hisobot tuzgan, 71%i hisobotlarni mustaqil tashkilotlarga tasdiqlatgan (2005-yilda bu raqam 30% bo'lgan). Nomoliyaviy hisobotlar tuzishda yetakchi mamlakatlar: Yaponiya (100%), Malayziya(99%), Xindiston va AQSH(98%), Fransiya(97%), Buyuk Britaniya(94%) hisoblanadi[9].

Janubiy Afrika Respublikasi bir necha yillar davomida integratsiyalashgan hisobot sohasida o'ziga xos natijalarga erishmoqda va 2017-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda tayyorlangan integratsiyalashgan hisobotlar soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda (1-rasm).



1-Rasm. Integratsiyalashgan hisobotlarni tuzish bo'yicha yetakchi mamlakatlar

Manba: Areyou reframing the future or is the future reframing you? Excellence in Integrated Reporting 2020. www.ey.com.

KPMG tomonidan dunyoning top 100 talikka kiruvchi 5200 ta yirik kompaniyasi bo'yicha o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra, 2020-yilda Janubiy Afrikaning 100 ta yirik kompaniyasining 94 tasi integratsiyalashgan hisobot shakllantirgan, Yaponiya ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa-da 73 ta hisobot tayyorlangan. Janubiy Afrikadan juda sezilarli darajada orqada qolishiga qaramasdan Yaponiya kompaniyalari 2020-yilda 2017-yil bilan solishtirganda integratsiya hisobotlarni deyarli ikki barobar ko'proq (2017-yilda 42 ta, 2020-yilda esa 73 hisobot tuzilgan) shakllantirganini qayd etish lozim. Ushbu davrda Janubiy Afrika kichik o'sish sur'atlarini ko'rsatgan. 2020-yilda 2017-yil bilan taqqoslaganda 4 ta integratsiyalashgan hisobot ko'proq chop etilgan. Albatta, Janubiy Afrika Respublikasining integratsiyalashgan fikrlash sohasidagi yetakchiligiga faqat unga xos bo'lgan va "shakllantir yoki tushuntir" prinsipiga asoslangan listing kompaniyalari tomonidan integratsiyalashgan hisobotlarni tuzishning maxsus tartibini mavjudligi ham ta'sir ko'rsatadi [10].

Shuni ham aloxida ta'kidlash joizki, Janubiy Afrika Respublikasi nafaqat tuziladigan hisobotlarning miqdori, balki ularning sifati bo'yicha ham yetakchilik qiladi. Shu boisdan ham Janubiy Afrika kompaniyalarining integratsiyalashgan hisobotlarini tahlil qilish e'tiborga molik hisoblanadi.

Ushbu sohadagi yetakchi kompaniyalarning integratsiyalashgan hisobotlari tahlil qilinayotganligi sababli, hisobotlardagi ma'lumotlarning aniq va mantiqiy ravishda tuzilganligi, hajmini ixchamligi, asosiy muhim masalalar batafsil va ayni paytda manfaatdor tomonlar uchun mazmunli ochib berilganligi odatiy xoldir.



Moliyaviy ma'lumotlar asosan umumlashtirilgan shaklda taqdim etiladi. Manfaaddor foydalanuvchilarga moliyaviy ko'rsatkichlar to'g'risida yillik moliyaviy hisobotlarda, moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar haqida esa korporativ ijtimoiy hisobotlarda batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi. Ushbu maqsadlar uchun integratsiyalashgan hisobotlarda o'zaro aloqadorlikdagi (birlashgan) ma'lumotlar keltiriladi.

Janubiy Afrikaning yetakchi kompaniyalarining investorlari va boshqa manfaaddor tomonlari uchun integratsiyalashgan hisobotning sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida o'tgan to'qqiz yil mobaynida jahonga mashhur Ernst & Young auditorlik kompaniyasi tomonidan integratsiyalashgan hisobot sohasidagi ilg'or tajribalar tadqiq etilmoqda. Ushbu tadqiqotlar yakunida integratsiyalashgan hisobot sohasida erishgan ulkan yutuqlari uchun 2020-yil reytingida birinchi o'rinni egallagan kompaniya e'lon qilindi. 2019-yil 31-dekabr xolatiga ko'ra bozor kapitalizatsiyasi asosida JSE ro'yxatiga kirgan 100 ta yirik kompaniyalar ichidaxalqaro integratsiyalashgan hisobot tizimining talablariga eng yaqin hisobot taqdim etgan Nedbank Group Ltd kompaniyasi 2020-yil reytingida birinchi o'rinni egalladi.


Bu yilgi hisobotlarning eng ijobiy tendensiyalari biznesning strategik rivoji bilan rag'batlantirish haqidagi ma'lumotlarni bog'lash, boshqaruvga oid ma'lumotlarni e'lon qilish, qiymat yaratilishi haqidagi ma'lumotlarni integrallashgan xolda qayd etish, Kovid-19ni ta'siri haqidagi ma'lumotlarni aks ettirish hamda BMTni Barqaror rivojlanish maqsadlarini yanada kengroq tan olish hisoblanadi.

Shu bilan birga yanada takomillashtirilishi mumkin bo'lgan masalalar ham mavjud. Misol uchun, qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli strategiyalar o'rtasidagi farqlar aks ettirilmayapti, muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini bog'liqligi va biznesni boshqarishni amalga oshirish tartibi yetarlicha bayon qilinmayapti. Biznes tomonidan o'zi va boshqalar uchun yaratishni hojlayotgan qiymat va boshqa rivojlantirilishi kerak bo'lgan boshqa soxalar yetarli darajada izohlanmayapti.


Ernst & Young Africa kompaniyasi vakili Larisa Klarkni fikriga ko'ra, "Moliyaviy hisobotlar o'z o'zidan kompaniyani butun tarixi haqida ma'lumot taqdim etmaydi. Shu bilan birga, kompaniyalarni atrof-muhitga ta'siri, xodimlar bilan bog'liq muammolar va korporativ ijtimoiy mas'uliyatga oid masalalari haqida tobora ko'proq ma'lumot taqdim etayotgani quvonarli xoldir" [10].

2020-yilda 22 ta kompaniyani, 2019 va 2018-yillarda esa 23ta kompaniyaning integratsiyalashgan hisoboti esa "Yaxshi" bahoga baholangan. "Istiqbolda yaxshilanadigan" kategoriyaga kiritilgan integratsiyalashgan hisobotlarda ozgina ijobiy o'zgarishlar bo'lgan.


Janubiy Afrika kompaniyalari integratsiyalashgan hisobotidagi tendensiyalar 3-rasmda keltirilgan.



2011 2012 2013 2014 2015 2016 2017 2018 2019



2011 2012 2013 2014 2015 2016 2017 2018 2019



2011 2012 2013 2014 2015 2016 2017

3-rasm.JAR kompaniyasi integratsiyalashgan hisobotlari tendensiyalar.

Manba. Are you reframing the future or is the future reframing you? Excellence in Integrated Reporting 2020. www.ey.com.

Bizningcha Janubiy Afrika kompaniyalari integratsiyalashgan hisobotini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- biznes tomonidan o'zi va boshqalar uchun yaratilishi mo'ljallanayotgan qiymat keng izohlanishi lozim;
- kompaniyani joriy faoliyati istiqbolda resurslar mavjudligiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirga ko'proq e'tibor berish kerak. Oltita kapitalning har biri uchun kelajakda resurslarning mavjudligi bilan bog'liq risklarni aniq belgilash lozim, chunki bu manfaatdor tomonlarga



kompaniyaning istiqbolda qiymat yaratish qobiliyatini yaxshiroq tushunishiga yaqindan yordam beradi;

- biznes faoliyatini atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri haqida batafsil ma'lumot berish uchun kompaniya barqarorlik hisobotini taqdim etish vabu orqali atrof-muhitni istiqbolda qiymat yaratishgako'rsatadiganta'sirimasalasiga integratsiyalashgan hisobotda aloxida e'tibor qaratilishini ta'minlashkerakmi degan masala ko'rib chiqilishi kerak;
- ma'lumotlar mavjudligi bilan bog'liq mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday cheklovlar haqida batafsil ma'lumotlarni aks ettirish zarur;
- muvozanatli hisobotga, shuningdek salbiy natijalar va kompromisslarga e'tiborni kuchaytirish kerak;
- turli kompromisslar haqida yanada aniq va umumiy tushuntirishlarni keltirish lozim va ushbu kompromisslar aloqasini strategiya bilan yaxshiroq bog'lash kerak.
- qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli strategiyalar o'rtasidagi farqni yanada aniqroq aniqlash va har bir vaqt davrining davomiyligini aks ettirish kerak;
- direktorlar kengashida muhokama qilingan asosiy masalalar haqidagi ma'lumotlarni qayd etish va uni strategiya bilan bog'lash kerak;
- hisobotga bir necha muhim samaradorlik ko'rsatkichlari va boshqa ko'rsatkichlarni qo'shish hamda bu ko'rsatkichlarning muhimligi sababi, o'lchash tartibi, ularni takomillashtirish imkoniyatlari va baholash tartibi haqidagi ma'lumotlar ham taqdim etilishi kerak;
- samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari bilan biznes boshqaruvi holatidagi tushuntirishlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash kerak;
- erishilgan natijalarni aniqlash uchun BMTni Barqaror rivojlanish maqsadlaridan foydalanish lozim;
- rag'batlantirish tizimi haqidagi ma'lumotlar umumiy va murakkabdir. Ushbu ma'lumotlar sodda va tushunarli bo'lishi hamda istiqbolda qiymatni yaratilishi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Hisobotdan foydalanuvchilarga qiymatni yaratish bilan kompaniyadagi rag'batlantirish siyosatini bir biriga mos kelishi sababi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati yaratilishi kerak;
- Kengash a'zolaridan talab qilinadigan atributlar haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etilishi kerak;
- integratsiyalashgan hisobot to'liq shakllantirilishi uchun kompaniya tomonidan amalga oshirilgan xatti-xarakatlar, masalan, tasdiqlatish jarayoni va darajasi haqida ko'proq ma'lumotlar aks ettirilishi kerak.

2020-yil natijalariga ko'ra, Janubiy Afrikaninglisting kompaniyalari integratsiyalashgan hisobotnishakllantirishbo'yicha ijobiy natijalarga erishgan[10]:

Hisobotlarda moliyaviy hisobotlarning o'rtacha hajmi 30 betni tashkil etsa,integratsiyalashgan hisobotda moliyaviy hisobotni hajmi 24 betni tashkil qilmoqda.

"A'lo" baho uchun beriladigan mukofotlar barcha talablarga ko'proq javob beradi, - deb hisoblangan yuqori sifatli integratsiyalashgan hisobotlarga beriladi. Joriy yilda 3 ta integrallashgan hisobot "A'lo" baho mukofotiga sazovor bo'ldi.

Tarmoqlar kesimida ham tadqiqotlar o'tkazilgan. Tadqiqotlarga ko'ra:



- 2020-yil tadqiqotlar o'tkazilgan taxminan 25% kompaniyalar ikkinchi yil ketma-ket iste'mol tovarlari va chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatadigan kompaniyalar bo'lmoqda;
- moliyaviy sektorda pasayish tendensiyasi yuz bergan va umumiy kompaniyalarni 16%ini tashkil qilgan, o'tgan yili bu ko'rsatkich 19%ni tashkil qilgandi;
- ko'chmas mulk, sanoat tovarlari va sug'urta sektori o'tgan yilgi darajada qolgan. Tog'-kon sanoatida ozgina o'sish bo'lgan;
- bu yilgi so'rovnoma logistika, ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiya sektoridan yangi kompaniyalar qatnashdi;
- tog'-kon sanoatini 80% idan ortiq kompaniyalari "A'lo" va "Yaxshi" kategoriyasiga kirgan. Sanoat tovarlari sektoriga qarashli 55% kompaniya "A'lo" va "Yaxshi" kategoriyasiga kiritilgan. Keyingi o'rinda 45% bilan iste'mol tovarlari va ulgurji savdo sektori o'rin oldi.

Tadqiqot natijalaridan integratsiyalashgan hisobotlar doimiy ravishda takomillashtirilayotganligi haqida xulosa qilish mumkin. Hisobotda qayd etilayotgan ma'lumotlarni o'zaro aloqadorlik darajasi o'zaro kesishuvchi ma'lumotlarni taqdim etilishi va ma'lumotlarni qaytarilishini bartaraf etilishi natijasida o'smoqda. Biznes-modelni izohlash yaxshilanmoqda, bunda kompaniyalar ko'pincha Integratsiyalashgan hisobotni xalqaro kengashi tavsiya etgan yondashuvdan fodalanmoqda. Ko'pgina hisobotlarda strategiya, muhim masalalar, natijadorlikning muhim ko'rsatkichlari va risk o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud. Investorlar ma'lum davr davomida kompaniyaning qiymatni yaratish qobiliyati haqida yaxlit tassavurga ega bo'lmoqda. Integratsiyalashgan hisobotlar kompaniyalarni axborot shaffofligi va hisobdorlikning ancha yuqori darajasiga olib chiqmoqda.

Xorijiy kompaniyalarni integratsiyalashgan hisobotlarni shakllantirish orqali ma'lumotlarni taqdim etish soxasidagi ilg'or tajribalari mamlakatimiz xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan mazkur hisobot turini shakllantirishga o'tishida katta ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Integrirovannaya otchetnost: vyzov menedjmentu / Ageev A.I i dr. M.: Institut ekonomicheskix strategiy, Natsionalnyy sentr nauchno-texnicheskiy informatsii. 2016. - 212 s.
2. Getman V.G. O konseptualnykh osnovax i strukture mejdunarodnogo standarta po integrirovannoy otchetnosti / V.G. Getman // Mejdunarodnyy nauchno-prakticheskiy jurnal. - 2014. - № 1. s.76.
3. Malinovskaya N.V. Zarubejnyy opyt sostavleniya integrirovannoy otchetnosti. Uchet. Analiz. Audit. 2018;5(3):54-61. DOI: 10.26794/2408-9303-2018-5-3-54-61.
4. Integrirovannaya otchetnost i vozmojnost yee primeneniya v Respublike Belarus. [O.Malinovskaya. № 03/2019](http://www.proMSFO.by). www.proMSFO.by.
5. Ofitsialnyy sayt mejdunarodnogo soveta po integrirovannoy otchetnosti. - Rejim dostupa: <http://www.ir.org.ru>.
6. Malinovskaya, O. V. Integrirovannaya otchetnost – genezis i perspektivy razvitiya / O. V. Malinovskaya // Bux. uchetskiy analiz. – 2015. – № 1. – S. 38–42.
7. Are you reframing the future or is the future reframing you? Excellence in Integrated Reporting 2020.